

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING**

Bo'riyeva Husnora

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika ta'limida o'quvchilarning aqliy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar, interfaol usullar, logik topshiriqlar, muammoli vaziyatlar hamda raqamli vositalardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, matematik tafakkur rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar, o'quv faoliyatini tashkil etishning innovatsion shakllari va o'qituvchining pedagogik mahorati ilmiy tahlil qilinadi. **Tayanch so'zlar:** aqliy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, matematika, metodika, mantiqiy fikrlash, interfaol usullar, muammoli ta'lim, kreativlik.

**Абстракт**

В данной статье раскрывается эффективность методических подходов, интерактивных методов, логических заданий, проблемных ситуаций, а также использования цифровых средств в развитии интеллектуального мышления учащихся при обучении математике в начальных классах. Кроме того, проводится научный анализ психологических факторов, влияющих на развитие математического мышления, инновационных форм организации учебной деятельности и педагогического мастерства учителя.

**Ключевые слова:** интеллектуальное мышление, начальное образование, математика, методика, логическое мышление, интерактивные методы, проблемное обучение, креативность.

**Abstract**

This article examines the effectiveness of methodological approaches, interactive techniques, logical tasks, problem-based situations, and the use of digital tools in developing the intellectual thinking of primary school students in mathematics education. It also provides a scholarly analysis of the psychological factors influencing the development of mathematical thinking, the innovative forms of organizing learning activities, and the pedagogical competence of the teacher.

**Key words:** intellectual thinking, primary education, mathematics, methodology, logical reasoning, interactive methods, problem-based learning, creativity.

**Kirish.** Jahon miqyosida ta'lim tizimiga mamlakat taraqqiyotining kelajagini kafolatlovchi asosiy omil sifatida qaralib, pedagogik texnologiyalarni ta'lim mazmuniga singdirish, jumladan, matematika ta'limi mazmunini nazariy va amaliy jihatdan boyitish, matematika fanlarining zamonaviy o'quv-metodik ta'minoti imkoniyatlarini oshirish, aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan ta'limni tashkil qilish va uni yanada takomillashtirish borasida keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim tizimida sodir bo'layotgan islohotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash madaniyatini rivojlantirish, ularning ijodiy va mantiqiy tafakkurini shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, matematika fani o'quvchilarda tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim davri – bu bolaning intellektual

salohiyatini shakllantirishning eng muhim bosqichidir. Shu bois, matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning aqliy tafakkurini izchil rivojlantirish bugungi metodikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Buyumlar va geometrik shakllarning har xil belgilari bo'yicha guruhlarga ajratishga doir mashqlar katta ahamiyatga ega, bunday mashqlar shu vaqtning o'zida bolalarning shakl, kattalik, miqdor va hokazolar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Bilimlarni mustahkamlash uchun tarbiyachi har xil xarakterdagi, ya'ni amaliy, o'yin, musobaqa elementlari bilan bog'liq mashqlardan, interfaol usullardan foydalanadi. Uch-to'rt yoshdagi bolalarni o'qitishda, ayniqsa, o'yin elementlaridan keng foydalaniladi. Shuni esda tutish muhimki, didaktik materialni va usulni almashtirish bilim va ko'nikmalarni alohida zo'riqishlarsiz o'zlashtirishni ta'minlovchi vositadir. O'yin momentlariga haddan tashqari berilib ketmaslik kerak, chunki o'yin asosiy narsadan – matematik ishdan chalg'itishi mumkin, natijada bolalar mashg'ulot rejasida nazarda tutilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtira olmaydilar.

a) Sodda va murakkab masalalar

b) Geometrik masalalar

v) Qiziqarli masalalar

O'quvchilar maktubdagi mashg'ulotlarning birinchi kunidanoq masala bilan uchrashdi. Birinchi sinf o'quvchilari bilan qilinadigan dastlabki suhbatlarning birida o'qituvchi o'quvchi qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanligini aniqlash maqsadida eng sodda masalaga murojaat qiladi. Masalan, "Sening 4 ta qalaming bor edi, sen yana bitta qalam olding, sendagi qalamlar nechta bo'ldi?".

Maktabda o'qitishning boshidan oxirigacha matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitning o'zaro aloqadorligining turli tomonlarini chuqurroq aniqlashga yordam beradi, o'rganilayotgan nazariy qoidalarni qo'llanish kuzatilayotgan hodisalarda har xil sonli bog'lanishlarni o'rgatish imkonini beradi va masalalar yechish bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

Matematik masala o'zi nima? Matematik masal bu bog'liqligi ixcham hikoya bo'lib, unda ba'zi kattalilarning qiymatlari kiritilgan bo'lib, ularga bog'liq va masal shartiga ular bilan ma'lum munosabatlar orqali bog'langan boshqa kattalilarning qiymatlari izlanadi.

Ammo, o'qituvchilar masalaning boshqa ta'rifini ham biladilar: "Masala bu – so'zlar bilan ifodalangan savol bo'lib, uning javobi arifmetik amallar yoramida olinishi mumkin." Shuni ta'kidlaymizki, bu ta'rif faqat arifmetik masalalarga taalluqlidir.

Masalalarni yechish malakasi umumiy xarakterda bo'lishiga qaramay, hamma boshqa malakalar kabi rivojlanadi. Ammo buning uchun mashqlarning alohida sistemasi kerak, bu mashqlar sistemasi o'quvchilarda ijodiy o'ylashni talab qilishga yo'nalgan bo'lishi kerak.

Mashqlarning bunday sistemasida o'quvchilarning o'zlari tafakkuri yordamida sonli materiallar asosida masala tuzishlari (va yetishlari) katta o'rin olishi kerak. Bu son materiallar atrof hayotdan olingan bo'lib, o'quvchilarning amaliy faoliyatiga bog'langan bo'lishi lozim. Agar masala muammolarni yechish sistemasi kiritilsagina agar yechishning qiyinligi o'quvchi uchun tobora orta borsa uning bartaraf qilishga o'quvchining kuchi yetadigan bo'lsagina, o'quvchidagi mustaqil, ijodiy yechishga bo'lgan qiziqishi turg'un bo'ladi. So'ngra esa extiyojga aylanib qoladi. Bu jihatdan o'qituvchi o'quvchilar tomonidan masala yechishning turli usullaridan foydalanishlarini doimiy ravishda o'z tajribalarida o'zlari topgan u yoki bu usulning afzalligini ishonch hosil qilishlarida va so'ngra ular o'z ixtiyorlari bilan yechish usullarini almashtirishlarida,

yechish usullaridan eng osonlarini izlashlarida va ulardan foydalanganlarida sinf jamoasining ishlashidagi umumiy atmosfera muhim rol o'ynaydi.

O'qitishning borishida o'quvchilar egallab olishi kerak bo'lgan malakalar sistemasi tobora boyib boradi, ilgari egallangan malakalar ustida yangilari hosil qilinadi.

Bu bosqichda o'qituvchi oldida turgan maqsad masalalar yechishda savolning real ahamiyatini yaqqol ko'rsatish va isbotlashdan, ular ongida berilganlardan savolni ajratishdan iborat ekani mutlaqo ravshan.

Shu maqsadga mos ravishda dastlabki matematik masalalar qanday kiritilishi kerak? Metodika fani bu savolga javob berar ekan, tafakkur rivojlanishining qonuniyatlaridan birini hisobga oladi.

Bu qonunga asosan konkret yoki xatto aniq, faol tajribaga tayanilgandagina mavhum bilimni egallay olishi mumkin. Butun sonlar va kasr haqidagi tushunchalar o'qitishning boshlang'ich pog'onalarida bolalarning idrok qilishi va predmetlar bilan mishlashi asosida rivojlantiradi. Masala tushunchasini tor ma'noda qarab, unda quyidagi tarkibiy elementlarni ajratish mumkin.

a) masalaning sharti – syejetning so'zlar bilan bayoni bo'lib, unda son qiymatlari masala tarkibiga kiruvchi kattaliklar orasidagi bunksional bog'lanish oshkor (sonlar yordamida) yoki oshkormas (shakldosh so'zlar yordamida) ko'rsatilgan bo'ladi.

b) masalaning savoli – bunda bir yoki bir necha kattalikning noma'lum qiymatlarini bilish taklif qilinadi.

Har qanday arifmetik masalada noma'lum (izlanayotgan) son, (yoki bir necha izlanayotgan son) va berilgan sonlar (ular ikkitadan kam bo'lmasligi kerak) dan iborat elementlar albatta bo'lishi kerak ekan.

Shart va savol – masalaning asosiy elementlaridir. Sonli (yoki harfiy) ma'lumotlar masala shartida berilgan, izlanayotgan miqdor har doim masala savoliga kirgan bo'ladi. Ammo ba'zi hollarda masala shunday ifodalangan bo'lishi mumkinki, unda savol shartining bir qismini oladi yoki butun masala savol shaklida bayon qilinadi.

**Xulosa.** Ko'pincha masalalar o'quvchilarga ularning bilimlarini to'ldirish, malakalarini egallash, ko'nikmalarni takomillashtirish va puxtalash uchun beriladi. O'quvchining masalani mustaqil yechishidan unda ko'nikma va malakalarning tarkib topishi uchungina emas, balki teskari aloqa o'rnatish (o'quvchi-o'qituvchi) uchun ham foydalaniladi. Bu esa o'qituvchiga o'rganilayotgan masalani o'quvchi qanday o'zlashtirishini kuzatish va uning muvaffaqiyatlarini tekshirish imkonini beradi.

Bilimlarini tekshirishda masala o'quvchi tafakkurining rivojlanishini haqida fikr yuritish, kerakli amallarni to'g'ri tanlash, hisoblash ko'nikmalari haqida fikr yuritish imkonini beradi. Matematikaning ichki aloqadorligini turli xil masalalar yordamida ko'rsatish o'quvchilar bilimni rivojlantiradi. Buning uchun o'quvchilarga masalalar yechishning turli usullarini o'rgatish zarur bo'ladi. Ular qatoriga geometrik talqin orqali matnli masalalar, geometrik masalalar qiziqarli masalalarni sodda va tarkibli masalalarni keltirish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsersiyasini tasdiqlash to'g'risida" RF-5712-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni, 3-modda sakkizinchi xat boshi 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son,

3. 2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida (qarorning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli qarorlari)
4. Haydarov B.Q., Davletov D.E., Sararboev J.Yu. Matematika fanini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. // A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. 2018., T.: 92-93-b.
5. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi: / M. Djumayev, - Toshkent: Bayoz, 2023. 296 bet.
6. Eshpo'latova J. E. MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH // Inter education & global study. – 2024. – №. 3 (1). – C. 139-146.
7. DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY IN STUDENTS ON THE BASIS OF A COMPETENT APPROACH. (2025). EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(2), 164-169. <https://brightmindpublishing.com/index.php/ev/article/view/110>
8. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILİYATLARINI NAZORAT QILISH YO'LLARI. (2025). INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS, 2(5), 52, 56. <https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmdpl/article/view/4719>